

O‘SMIRLIK DAVRIDA TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI.

**Andijon davlat pedagogika instituti
“Tabiiy” fanlar fakulteti “Kimyo”yo‘nalishi
1-bosqich talabalari:
Imomnazarova Sarvinoz Inomjon qizi
Nabijonova Madina Abduqaxxor qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davri, o‘smirlarda yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlar, o‘smirlik davrida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati, o‘smirlik avtonomiyalari, agressivlik holatlari, o‘smirlarda ikkinchi menni shakillanishi kabi holatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smir, ta’lim, tarbiya, tarbiyasi qiyin o‘smirlar, axloqiy hislar, orsizlar, o‘smirlik avtonomiyalari,

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Insonning hayotiy tajribalarni bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tariqasida o‘zlashtirishga aloqador bo‘lgan bir necha tushunchalar mavjud. Bu o‘quv faoliyati, ta’lim, o‘qish va o‘rganishdir.

O‘smirlarning jismoniy o‘sishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. O‘quv fanlarining ko‘payishi, axborotlar tarmog‘ining kengayishi ularning fikr yuritishini jadallashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda endigina rivojlanish bosqichiga ko‘tarilgan intellekt o‘smirlik davrida yanada takomillashadi. O‘smir o‘quvchilar o‘rganayotgan fan asoslari, avvalo ularning mavhum tafakkurini o‘stirishga qaratiladi. Uning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri - mavhum tafakkurning rivojlanishidir. O‘smirning eng muhim xususiyatlaridan biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchidan farqli o‘laroq, o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi. Maktab ta’limining bevosita ta’siri bilan o‘smirda o‘zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi. U o‘zining fikriga, mustaqil qarashiga, biror masala yuzasidan o‘z mulohazasiga ega bo‘lishi uchun harakat qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklarga tanqidiy nuqtai nazardan qaraydi. Ko‘pincha o‘qituvchining mulohazasidan, darslikdan xato va kamchiliklarni topishga intilib, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga qat’iy e’tiroz bildirishga, tortishishga va bahslashishga moyil bo‘ladi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik g‘ovi”ni vujudga keltiradi. Aqlning “tanqidiyligi” o‘smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u o‘z g‘alalar fikrini turli bahonalar, sabablar bilan yo‘qqa chiqarishga qaratilgan bo‘ladi. Tafakkurning mustaqilligi inson uchun juda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda, har qanday og‘ir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu xislatni qo‘llab-quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuni ham esdan chiqarish lozimki, dastlabki davrda o‘smirning nuqtai nazarini, mulohazalaridagi xatolarini, muvaffaqiyatsizliklarni yomonlash, uni izza qilish, izzat-nafsiga tegish, masxaralash mutlaqo mumkin emas, aks holda o‘smir aqlining ajoyib sifati barbod bo‘ladi va uning o‘zi jamiyat hamda tabiat qonunlariga, holatlariga befarq qaraydigan shaxsga aylanib qoladi.

O‘smir o‘quvchilarni ta’lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba’zan yetarli darajada bilmasliklaridan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga qaraganda o‘smir yoshdagi bolalarni tarbiyalashda juda ko‘p qiyinchiliklar bo‘ladi. O‘qituvchilar jamoasi har qancha urinishidan qat’i nazar, ta’lim jarayonida tarbiyasi qiyin o‘smirlar ham uchraydi. Hozirgi davrda, bunday o‘quvchilar bilan yakka-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe’l-atvordagi nuqsonlarning xatti-harakati nosog‘lomligining oldini olish va tuzatish yo‘llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tarbiyasi qiyin; injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O‘quvchilarda nojo‘ya xatti-harakatlar paydo bo‘lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishni darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o‘smirlar jinoy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar (tartibbuzar) guruhlariga ajratiladi. Shaxsning biologik o‘sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o‘qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o’sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo’shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o’smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o’rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hisslarning yetishmasligi, o’qituvchi, sinf jamoalari, oila a’zolari bilan noto’g’ri muloqot, ishyoqmaslik, bo’sh vaqtni to’g’ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o’quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaski, eng muhim bilim, ko’nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktab faoliyatidagi: o’qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta’siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog’atga yetmagan tengqurlarining ta’siri, madaniy-ma’rifiy ishlab chiqarish o’z jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o’smirlar ko’payishiga sabab bo’ladi. Tarbiyasi qiyinlarni o’rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag’batlantirish, bo’ysundirishdan, qo’rqitish, “sun’iy qiyin hollarni yaratish” singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to’xtalamiz. Odatda novella, voqea, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o’smirlar xatti-harakatining sabablarini o’rganishda yaxshi samara beradi. O’qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o’smirlarga tegishli asardan parcha o’qib beriladi, so’ng ularda qanday qo’zg’alish yoki ta’sirlanish paydo bo’layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasiga binoan, o’qilgan parchada o’smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g’aroyibotlar o’z aksini topishi shart.

O’smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin:

Tarbiyasi qiyin o’smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o’z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma’qul ishlarni qiladilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o’smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e’tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg’uga ega emasliklari sababli “orqa qanoat”da turib qoidani buzadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o’smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo’liga kirib qoladilar.

Xulosa: O’smirlik davri insonning eng murakkab davri hisoblanib, bu davrda ular o’z xatti-harakatlarini to’g’ri baholay olmaganligi uchun, yaqinlarini ham ko’pincha ranjitib qo’yadilar. Bu davrda bolaga ota-oasi bilan bir qatorda o’qituvchi ham e’tiborliroq bo’lishi kerak. O’smirlik davrida inqirozlarni boshdan kechirganligi sababli ham o’qish jarayonlaridan chalg’ish holatlari ham uchraydi. O’smirlar o’z yaqinlaridan maqtoqlar, motivlar olishga intiladi, shuning uchun ham ularni o’z vaqtida to’g’ri olqishlab ham turish kerak. Muhimi O’smir inson kimgadir ishona olishi kerak, u o’z yaqinlari bo’lsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Rivojlanish psixologiyasi”. Pedagogik psixologiya Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Toshkent-2018
2. “Yosh davrlari psixologiyasi” E.G’oziyev Toshkent “NIF MSH “-2020
3. “Umumiy psixologiya” Jo’rayeva S.N,Sharofiddinova X.G,Mamaradjabova
4. “Ontogenez psixologiyasi” G’oziyev E.G’-T:Noshir 2010-yil
5. “Umumiy psixologiya”Xaydarov F.I,Xalilova N.I-T:TDPU,2010
6. Xosilbekovna, S. F. (2024). PSIXOLOGIK HOLATLARGA TUSHISHNI OLDINGI OLISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(4), 56-58.
7. Abdulmajidova, M. (2021). Muloqot–Bola Psixik Rivojlanishining Muhim Omili. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 614-617.